

01-10/3
16.06.2023-й.

TASDIQLAYMAN
O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi huzuridagi
“O‘zarxiv” agentligi direktori,
Hay’at raisi



U.M. Yusupov

2023-yil 16-iyun

**“O‘zarxiv” agentligi Hay’atining kengaytirilgan yig‘ilishi
3-son BAYONI**

2023-yil 16-iyun

Bo‘stonliq t.

Raislik qiluvchi:

U. Yusupov

“O‘zarxiv” agentligi direktori, Hay’at raisi;

Qatnashdilar:

Sh.Sadikov, X.Isayev, D.Kucharova, “O‘zarxiv” agentligi Hay’ati a’zolari;
A.Mamanazarov, D.Zakirova

Taklif qilinganlar:

Agentlik markaziy apparati xodimlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O‘zbekiston milliy arxivlari, Arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha malaka oshirish ilmiy-metodik markazi direktorlari va ularning o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston va Toshkent shahar markaziy hamda viloyat davlat arxivlari direktorlari

KUN TARTIBI:

I. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2023-yil 25-maydagi 03-08/2551-son taqdimnomasi to‘g‘risida (U. Yusupov).

II. Jinoyat ishlari bo‘yicha Namangan shahar sudining 2023-yil 11-maydagi 3-1601-2307/6458-son taqdimnomasi to‘g‘risida (Sh.Sadikov).

III. Turli masalalar.

(U. Yusupov, Sh.Sadikov, X.Isayev, L.Mirzayev, D.Kucharova, A.Mamanazarov,
D.Zakirova, U. Yusupov)

I. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2023-yil 25-maydagi 03-08/2551-son taqdimnomasi to‘g‘risida.

“O‘zarxiv” agentligi direktori U.Yusupovning O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2023-yil 25-maydagi 03-08/2551-son taqdimnomasi bo‘yicha axboroti eshitildi.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan “O‘zarxiv” agentligi tizimida korrupsiyani keltirib chiqarayotgan omillar, uning sabablari va vujudga kelishiga imkon bergan shart-sharoitlar hamda davlat tashkiloti faoliyatining ochiqligi sohasida olib borilayotgan ishlarni amalga oshirishda qonunchilikka rioya etilishi holati yuzasidan masofaviy o‘rganish va tahlillar o‘tkazilgan.

O‘tkazilgan o‘rganish va tahlillar jarayonida Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatida quyidagi kamchiliklar mavjudligi aniqlangan.

Taqdimnomaga ko‘ra, Agentlik tizimidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari orasida “ish haqi va ish stajini tasdiqlash haqida arxiv ma’lumotnomasini berish xizmati” korrupsiyaviy xavf — xatarlarga eng moyil bo‘lgan xizmat turi ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Xususan, 2022-yilda mazkur xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida 3 nafar arxiv xodimlari tomonidan (*1 nafar Jizzax viloyatida JKning 25,168-moddasi, 1 nafar Surxondaryo viloyatida JKning 210-moddasi hamda 1 nafar Namangan viloyatida JKning 168-moddasi*) korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilganligi aniqlangan.

Ushbu xizmat turi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5834-son Farmoniga asosan, Davlat xizmatlari markazlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali xizmat ko‘rsatilishi joriy etilganligiga qaramasdan, ish haqi bilan bog‘liq ma’lumotlar o‘z vaqtida topilmasligi yoki qisman topilishi natijasida arxiv xodimlari va fuqarolar o‘rtasidagi muloqotga to‘liq chek qo‘yilmagan.

Shu bilan birga, fuqarolarning mulkka egalik qilinishini tasdiqlash, meros masalalari hamda notarial harakatlar va boshqa holatlarda davlat idoralari va tashkilotlari tomonidan fuqarolarga yer ajratish mazmunidagi qarorlaridan ko‘chirmalar yoki nusxalari olib kelinishi talab qilinib kelmoqda, bu esa arxiv xodimlari va fuqarolar o‘rtasidagi muloqotning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridagi holatlar, o‘z navbatida, korrupsiyaviy xavf – xatarlarning yuzaga kelishiga shart-sharoit yaratib beradi.

Agentlik tizimidagi barcha turdagi hujjatlar raqamlashtirilmaganligi (*raqamlashtirish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligi bois*) O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy va vaqtincha yashaydigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan arxiv ma’lumotlaridan to‘laqonli va o‘z vaqtida foydalanilishiga to‘siq bo‘lmoqda va bu borada ularning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Misol uchun, fuqaro A.O.A. o‘z murojaatida, Rossiya fuqaroligini olmoqchi ekanligi, ish haqi va stajini tasdiqlash bo‘yicha arizasi olti oydan buyon hal etilmayotganligi Rossiya Federatsiyasi Pensiya jamg‘armasining so‘rovi Agentlik tomonidan tasdiqlanmayotganligini ma’lum qilgan.

Bundan tashqari, Agentlikka jismoniy va yuridik shaxslardan korrupsiyaviy holatlar bilan bog‘liq murojaatlar ham kelib tushganligi aniqlangan.

Jumladan:

- fuqaro B.X.M.ning 2022-yil 16-sentabrdagi murojaatida, Davlat xizmatlari markazi orqali nafaqaga chiqish uchun 2022-yil 2-avgust kuni 125.000 so'm to'lov qilganligiga qaramasdan, Andijon viloyat davlat arxivi xodimi tomonidan yana pul talab qilinganligidan norozilik bildirgan;

- fuqaro R.D.I.ning (Sobiq Xatirchi tuman arxiv direktori bo'lib ishlagan) 2022-yil 21-iyul kunidagi murojaatida, Navoiy viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi boshlig'i S.S.B. ning yillar davomida boshqarma boshlig'i lavozimida ishlab kelayotganligini ma'lum qilib, shahar va tuman arxivlari tomonidan har chorak hisobotlar elektron shaklda topshirilayotganligiga qaramasdan, hisobotlarni qog'oz shaklda topshirilishini ma'lum qilib 200.000 so'm pul olayotganligi, aks holda hisobotlarni qabul qilmasdan sarson qilishini bildirgan;

- fuqaro A.A.X.ning 2022-yil 25-fevral kunidagi murojaatida, Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani davlat arxivning D. va S. ismli xodimlari tomonidan fuqaro A.A.X.ning opasi S.J. ning nafaqaga chiqishi uchun ish staji yozilishini va'da qilib 3,5 mln. so'm olganligini bildirgan.

Yuqoridagi murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida arxiv xodimlari va fuqarolar o'rtasidagi muloqot muntazam ravishda davom etib kelmoqda. Bunga sabab 2000-yilgacha bo'lgan barcha sohaga tegishli (fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining yer uchastkalari berish to'g'risidagi qarorlari, kolxozlar a'zolarining umumiy majlislari bayonnomalari, sovxozlar va boshqa qishloq xo'jaligi tashkilotlarining buyruqlari, faoliyati tugatilgan tashkilot hujjatlari, ta'lim muassasalarining bitiruvchilari bilan bog'liq buyruqlar, diplom ma'lumotlari va h.k) hujjatlar arxivga topshirilmaganligi oqibatida arxiv hujjatlarining topilmayotganligi bo'lmoqda.

Jumladan:

- fuqaro X.M.Z. o'z murojaatida Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani "Porloq Yulduzi" MFY raisi tomonidan 1989 — 1996-yillarda Surxon QFY tomonidan yer ajratish haqidagi qarorlari va xo'jalik kitobi jurnallari tegishli tuman arxivlariga topshirilmasdan, o'zida saqlab kelinayotganligi natijada ko'plab fuqarolarda ko'chmas mulk obyektlariga kadastr hujjatlarini rasmiylashtirishda muammo bo'layotganligini ma'lum qilgan;

- fuqaro T.Z.T. o'z murojaatida, turmush o'rtog'i R.X.A. 1988-1994-yillarda Samarqand shahridagi "O'zmyasomolospetsavtotrans" tashkilotida ishlaganligi, mazkur tashkilot 2009-yilda tugatilganligi, tashkilot rahbari R.X.Xadjiyev vafot etganligi hamda tashkilotga tegishli barcha hujjatlar korxonaning tugatish komissiyasi tomonidan tegishli davlat arxivlariga topshirilmasdan tashkilot binosida qarovsiz qolganligini bildirib, bugungi kunda ko'plab ishchi xodimlarining pensiyaga chiqishda muammolarga duch kelayotganligini ma'lum qilgan.

Mazkur holatlar o'z navbatida korrupsiyaviy xavf – xatarlarning yuzaga kelishiga shart-sharoit yaratib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 154-son Farmoni hamda 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 6247-son Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek, ustav

fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalari ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi belgilangan.

Shu bilan birga, Agentlikning rasmiy veb-sayti (www.archive.uz)da ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatida ko'rsatilgan axborotlarning e'lon qilib borilishi tahlil qilinganda, ochiqlikni ta'minlash yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirilmaganligi ma'lum bo'ldi.

Jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 6247-son Farmoni 1-ilovasi 15-bandida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan, davlat organlari va tashkilotlari tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar, qurilishi tugallanmagan obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar har chorakda joylashtirib borilishi ko'rsatib o'tilgan bo'lsada, Agentlik tomonidan 2022-yil 4-chorak **ma'lumotlari joylashtirilmagan.**

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5177-son Qarorining 1-bandida, Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarda ishga qabul qilish ochiq tanlov asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Biroq, Agentlik tizimida mazkur qaror talablari bajarilmasdan, ishga qabul qilish ochiq tanlov asosida amalga oshirilmagan.

Jumladan, 2022-yil 5-sentabrdagi 34 sh-sonli buyruqqa asosan **Jizzax viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi bosh hisobchisi**, 2022-yil 12-sentabrdagi 01/02-06sh-sonli buyruqqa asosan **Qashqadaryo viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mutaxassisi**, 2022-yil 13-iyuldagi 22sh-sonli buyruqqa asosan **Toshkent viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi bosh hisobchisi**, 2022-yil 22-noyabrdagi 44-sonli buyruqqa asosan **Toshkent viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi**, 2022-yil 7-iyundagi 22 sh-sonli buyruqqa asosan Namangan viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi, 2022-yil 1-iyuldagi 26-sonli buyruqqa asosan **Namangan viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mutaxassislari tanlovlarsiz to'g'ridan-to'g'ri ishga qabul qilingan.**

Mamlakatimizda davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflik muhitini yaratishdagi va xalqaro talablarga muvofiqlashtirish sohasidagi tizimli ishlarning ortga surilishi natijasida O'zbekistonning "Ochiq ma'lumotlarni kuzatish" xalqaro indeksidagi o'rni ta'sir o'tkazishi, salbiy holatlarni keltirib chiqarishga, o'z navbatida ijtimoiy tarmoqlarda jamoatchilikning haqli e'tirozlarining yuzaga kelishiga olib keladi.

Qolaversa, davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlariga rioya etmasligida ifodalangan xatti-harakatlar sodir etilishi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddalarida javobgarlik belgilangan.

Tahlil jarayonida Agentlik tizimidagi tashkilotlarda korrupsiya xavf-xatarlariga moyil bo'lgan Davlat arxivlari direktorlari, Hujjatlarni e'lon qilish va ulardan foydalanish bo'limi arxivchisi lavozimlar mavjudligi ma'lum bo'lgan.

Mazkur lavozimlar (*Navoiy, Toshkent viloyati davlat arxivi va Buxoro viloyati Olot tumani davlat arxivida ishlagan direktorlar*) bilan bog‘liq shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilganlik holatlari mavjudligi aniqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligidan olingan rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, “O‘zarxiv” agentligi tizimidagi tashkilotlar xodimlari tomonidan: 2021-yilda jami 10 ta korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilib (*jumladan, Jinoyat kodeksining 167-moddasi bilan 2 ta, 168-modda 3 ta, 209-modda 4 ta, 211-modda 1 ta*), natijada davlat manfaatlariga 74,7 mln so‘m zarar yetkazilgan;

2022-yilda jami 29 ta korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilib (*jumladan, Jinoyat kodeksining 167-moddasi bilan 6 ta, 168-modda 10 ta, 205-modda 2 ta, 209-modda 8 ta, 10-modda 1 ta, 211-modda 2 ta*), natijada 790,1 mln so‘m zarar yetkazilganligi aniqlangan.

Yuqoridagi keltirilgan holatlar mavjudligi Agentlik tizimidagi tashkilotlar xodimlariga sohaga taalluqli farmon va qarorlar hamda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha amaldagi qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyati yetarli darajada tushuntirilmaganligi, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ishlar samarali amalga oshirilmaganligi sababli korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etish holatlari ortgan.

II. Jinoyat ishlari bo‘yicha Namangan shahar sudining 2023-yil 11-maydagi 3-1601-2307/6458-son taqdimnomasi to‘g‘risida.

“O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari Sh.Sadikovning Jinoyat ishlari bo‘yicha Namangan shahar sudining 2023-yil 11-maydagi 3-1601-2307/6458-son taqdimnomasi bo‘yicha axboroti eshitildi.

Taqdimnomaga ko‘ra, Jinoyat ishlari bo‘yicha Namangan shahar sudining 2023-yil 11-maydagi qaroriga ko‘ra, Namangan viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi boshlig‘i N. Axmadaliyev O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 61- moddasi 1-qismida nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdor deb topilib, ma‘muriy javobgarlikka tortilgan.

Sud tomonidan N. Axmadaliyevga nisbatan MJtKning 61-moddasi 1-qismi bilan bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida 600.000 (olti yuz ming) so‘m jarima jazosi hamda huquqbuzarlik natijasida yetkazilgan 8.931.700 so‘m zararni Namangan viloyat Moliya boshqarmasi foydasiga undirish tayinlangan.

Sudda ish holatlari atroflicha o‘rganib chiqilib, ushbu huquqbuzarlik sodir etilishida huquqbuzar N.Axmadaliyev ishlab kelayotgan tashkilot tomonidan yetarli darajada huquqiy targ‘ibot va tushuntirish ishlari amalga oshirilmagani sabab bo‘lgani aniqlangan.

Sud, kelgusida bu kabi holatlarni “O‘zarxiv” agentligi xodimlari tomonidan takrorlanishini oldini olish maqsadida targ‘ibot va tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish lozim deb hisoblaydi.

Kun tartibidagi masalalar bo‘yicha berilgan ma’lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida **Agentlik Hay’ati qaror qiladi:**

1. Kun tartibidagi masalalar bo‘yicha berilgan axborotlar **ma’lumot uchun qabul qilinsin.**

2. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligining 2023-yil 6-iyundagi “O‘zarxiv” agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2023-yil 25-maydagi 03-08/2551-son “Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini

ko‘rish to‘g‘risida”gi taqdimnomasi yuzasidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanganligi **ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.**

3. “O‘zarxiv” agentligi tomonidan **Jinoyat ishlari bo‘yicha Namangan shahar sudining 2023-yil 11-maydagi 3-1601-2307/6458-son taqdimnomasi** yuzasidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi **ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

4. Jizzax (S.Avliyaxonov), Qashqadaryo (S.Babaqulov), Namangan (N.Ahmadaliyev), Toshkent (D.Rayimjonov) viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari:

xodimlarni **tanlovlarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishga qabul qilganliklari uchun** ogohlantirilsinlar;

ikki hafta muddatda tanlovsiz qabul qilingan xodimlar bo‘yicha aniqlangan qonunbuzilishlarni o‘rnatilgan tartibda qonunchilikka muvofiqlashtirsinlar.

5. “O‘zarxiv” agentligi bo‘lim boshlig‘i (F. Suyunov) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoni 1-ilovasi 15-bandiga muvofiq **2022-yil 4-chorak ma’lumotlari Agentlikning rasmiy veb-saytiga qo‘yilmaganligi uchun** ogohlantirilsin.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O‘zbekiston milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari:

ko‘rsatib o‘tilgan xato va kamchiliklarni o‘zlarining direksiya (ishlab chiqarish) yig‘ilishlarida tanqidiy muhokama qilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ko‘rsinlar, **amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida yakuniy** (bandma-band bajarilishi bo‘yicha) umumlashtirilgan ma’lumotni tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda joriy yilning **30-iyun kuniga** qadar (*ushbu bayonnomada boshqacha muddat nazarda tutilmagan taqdirda*) Agentlikka taqdim etsinlar;

barcha darajadagi rahbar va xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etish, shu jumladan, maishatbozlik, ichkilikbozlik va boshqa salbiy illatlarga yo‘l qo‘ymaslik, jamoada sog‘lom ma’naviy muhitni saqlash, fuqarolar va hamkasblarining sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiruvchi ma’lumotlar, tuhmat, ig‘vo va uydirmalarni tarqatmaslik, mehnat va ijro intizomi, ichki tartib qoidalariga, shuningdek, telefonda so‘zlashish va kiyinish madaniyatiga qat’iy rioya etish, har qanday qonunbuzilishiga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi murosasizlik bilan kurashish, korrupsiya va boshqa suiiste’molchiliklar sodir etilishining oldini olish, “halollik vaksinasi” bilan emlash, ya’ni halollikni ularning ongiga singdirish, ma’rifat orqali ularda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish kayfiyatini shakllantirish choralari doimiy ravishda ko‘rib borilishini;

arxivlar tomonidan fuqarolarning ish haqi va ish stajini hamda yaroqsiz holatga kelgan yoki yo‘qotilgan mehnat daftarchasidagi yozuvlarni tasdiqlash to‘g‘risidagi hamda mavzuli so‘rovlari bo‘yicha arxiv ma’lumotnomalarini taqdim etishni qat’iy ravishda DXM yoki YAIDXP orqali ko‘rsatsinlar;

arxivlar tomonidan xizmatlarni ko‘rsatish tartibi aks etgan ma’lumotlarni arxivlarda fuqarolarga ko‘rinarli qilib joylashtirsinlar hamda arxivga tashrif buyuradigan fuqarolarga ularning huquqiy asoslarni tushuntirib borsinlar;

ma’muriy reglamentlar bilan tartibga solingan davlat xizmatlari bo‘yicha fuqarolarga muhr qo‘yilgan va imzo chekilgan arxiv ma’lumotnomalarini taqdim etish amaliyotiga barham bersinlar (*zarur hollardagina QR-kodli arxiv ma’lumotnomasiga qo‘shimcha ravishda muhr va imzo qo‘yiladi*);

Agentlik tizimidagi barcha tashkilotlarning vakant lavozimlarga nomzodlarni Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan kelishilgan va “O‘zarxiv” agentligi tomonidan tasdiqlangan tartibga muvofiq tanlov asosida ishga qabul qilish choralarni ko‘rsinlar va doimiy nazorat qilib borsinlar;

lavozimdan ozod etilgan xodimlarga asosiz oylik ish haqi to‘lanish holatlariga yo‘l qo‘ymasinlar va doimiy nazorat qilib borsinlar;

xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali bo‘yicha budget mablag‘lari hisobidan ortiqcha mukofot pullari xamda oylik ustamalar va qo‘shimchalarni o‘rnatmasinlar va qat’iy ravishda belgilangan qonunchilikka rioya etsinlar;

mablag‘larni noqonuniy sarflanishini doimiy nazorat qilib borsinlar;

arxivlarda aniqlangan qonunbuzilishlari holatlari, shu jumladan yuqoridagi masalalar bo‘yicha holatlar aniqlangan hollarda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga va “O‘zarxiv” agentligiga darhol xabar berilishini ta‘minlasinlar.

7. “O‘zarxiv” agentligi Bosh yuriskonsulti (Sh. Raximov), bosh mutaxassisi (L. Mirzayev):

2023-yil 12-iyulga qadar Agentlik tizimidagi tashkilotlar xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ochiqlikni ta‘minlashga oid amaldagi hujjatlarining mazmun-mohiyatini va talablaridan xabardorligini oshirish bo‘yicha seminar-trening o‘tkazilishini ta‘minlasinlar hamda ushbu amaliy ishlarni doimiy tashkil etib borish choralarni ko‘rsinlar;

2023-yil sentabr-dekabr oylarida Agentlik tizimidagi tashkilotlar xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv kurslarida malakasini oshirilishini tashkil etsinlar.

8. Ushbu yig‘ilishi qarorlari ijrosi yuzasidan umumiy nazorat Agentlik direktori o‘rinbosari (Sh. Sadikov) zimmasiga yuklatilsin.

Hay’at a’zolari:

Sh. Sadikov
X. Isayev
D. Kucharova
A. Mamanazarov
D. Zakirova

Bayonnoma tuzuvchi:

L. Mirzayev

“O‘zarxiv” agentligi Hay’atining
kengaytirilgan yig‘ilishi
3-son bayoniga ilova

**“O‘zarxiv” agentligi tomonidan Jinoyat ishlari bo‘yicha Namangan shahar sudining 2023-yil 11-maydagi
3-1601-2307/6458-son taqdimnomasi yuzasidan amalga oshiriladigan
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish muddati	Mas’ullar
1.	Moliyaviy qonunbuzilishlarini oldini olish maqsadida huquqiy targ‘ibot va tushuntirish ishlarini amalga oshirilishini tashkil etish, targ‘ibot va tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish.	Har yarim yillikda	F.Suyunov, S.Yunusxodjayeva, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O‘zbekiston milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari
2.	Odob-axloq qoidalariga rioya etish, shu jumladan, maishatbozlik, ichkilikbozlik va boshqa salbiy illatlarga yo‘l qo‘ymaslik, jamoada sog‘lom ma‘naviy muhitni saqlash, fuqarolar va hamkasblarining sha‘ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiruvchi ma‘lumotlar, tuhmat, ig‘vo va uydirmalarni tarqatmaslik, mehnat va ijro intizomi, ichki tartib qoidalariga, shuningdek, telefonda so‘zlashish va kiyinish madaniyatiga qat‘iy rioya etish, har qanday qonunbuzilishiga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi murosasizlik bilan kurashish, korrupsiya va boshqa suiiste‘molchiliklar sodir etilishining oldini olish, “halollik vaksinasi” bilan	Doimiy	L. Mirzayev, S. Yunusxodjayeva, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O‘zbekiston milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish muddati	Mas'ullar
	emlash, ya'ni halollikni ularning ongiga singdirish, ma'rifat orqali ularda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish kayfiyatini shakllantirish choralari ko'rib borilish.		
3.	Lavozimdan ozod etilgan xodimlarga asosiz oylik ish haqi to'lanish holatlariga yo'l qo'ymaslik va nazorat qilib borish.	Doimiy	F.Suyunov, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O'zbekiston milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari
4.	Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali bo'yicha budget mablag'lari hisobidan ortiqcha mukofot pullari xamda oylik ustamalar va qo'shimchalar to'lanmaslik choralari ko'rish va qat'iy ravishda belgilangan qonunchilikka rioya etish.	Doimiy	F.Suyunov, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O'zbekiston milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari
5.	Mablag'larni noqonuniy sarflanishini doimiy nazorat qilib borish.	Doimiy	F.Suyunov, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O'zbekiston milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari
6.	Arxivlarda qonunbuzilishlari holatlari aniqlanganda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga va "O'zarxiv" agentligiga darhol xabar berish.	Doimiy, qonunbuzilishlari holatlari aniqlanganda	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O'zbekiston milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari